



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3732
2025 - yil 23 - Dekabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI
DIREKTORI BUYRUG'I

**Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan
o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor
2025-yil 2-dekabr
5-son



YULDASHEV BAXTIYOR
GAYRADJONOVICH

Kelishildi:

Vazir
2025-yil 19-noyabr



SHARIPOV KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil
2-dekabrdagi 5-son buyrug'iga
ILOVA

**Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan
o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha
INDIKATORLAR**

T/r	Mezon	Indikator
1-bob. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi		
1	Ta'lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashining (bundan buyon matnda Boshqaruv kengashi deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi	Boshqaruv kengashi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasasining vasiylik kengashi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2014-yil 23-maydagi 129-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan
		Boshqaruv kengashining vakolatlari, vazifalari, funksiyalari va ish yuritish tartibi belgilangan
		Boshqaruv kengashining yig'ilishlari tizimli ravishda o'tkazilgan va yig'ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan
		Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish va oliy ta'lim tashkilotini strategik rivojlantirishga yo'naltirilgan*

		Oliy ta'lim tashkilotida kollegial organlar (oliy ta'lim tashkilotining kengashi, jamoatchilik kengashi va boshqalar) mavjud, ushbu kollegial organlarni tashkil etish asoslari, maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan hamda ularning ta'lim sifatini ta'minlashdagi ishtiroki ta'minlangan Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlarini qabul qilish jarayonida talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejalari ijrosi bo'yicha yagona monitoring tizimi joriy etilgan hamda monitoring natijalari muntazam tahlil qilingan
2	Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani	Oliy ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya, strategiya) muvofiq moliyaviy mablag'larni boshqarish va taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilgan Moliyaviy resurslar o'quv jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani

		rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiq ravishda taqsimlangan
		Yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan
		Yillik moliyaviy rejadagi o'quv jarayoniga yo'naltirilgan xarajatlar maqsadli va samarali sarflangan
		Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda monitoring va tahlil natijalari asosida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilingan
3	Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqqligi va monitoringi yuritilgani	Oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya, strategiya) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) tasdiqlangan hamda mazkur rejada oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul ijrochilar belgilangan*
		Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun oliy ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning (fakultetlar, kafedralar, bo'limlar va boshqalar) yillik ish rejalari tasdiqlangan
		Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti rivojlantirish rejasining maqsadlari va vazifalari bilan uyg'unlashtirilgan

		Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka taqdim etib borilgan
		Rivojlantirish rejasining monitoringi va tahlili natijalari, manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o'rganilgan hamda ular asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko'rilgan
4	Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini, shuningdek biriktirilgan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissassi	Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan
		Oliy ta'lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etgan (hissa qo'shgan, tashkil qilgan)
		Madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko'rgazma, anjumanlar yoki boshqalar) tashkil etilgan
		Oliy ta'lim tashkilotiga biriktirilgan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan
		Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning natijalari tahlil qilingan

5	Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani	Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun axborot tizimi (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan*
		Axborot tizimida talabalar va professor-o'qituvchilarga oid ma'lumotlar, shuningdek o'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali, baholash va talabalar davomati bo'yicha ma'lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud
		O'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan
		Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan
		Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi ta'minlangan hamda axborot tizimi o'z vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan
		Tayyorlangan tahliliy hisobotlar oliy ta'lim tashkilotining kengashi (bundan

		buyon matnda OTT kengashi deb yuritiladi) yigʻilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari koʻrilgan
6	Taʼlim tashkilotida xalqaro hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyilgani	Xorijiy taʼlim va ilmiy tashkilotlar, shuningdek nufuzli xalqaro institutlar bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyilgan
		Professor-oʻqituvchilarning oʻz sohalari boʻyicha yetakchi xorijiy taʼlim va ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etish imkoniyati yaratilgan
		Oʻquv jarayoniga tegishli sohalar boʻyicha yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan hamda ularning oʻquv jarayonidagi ishtiroki taʼlim sifatini oshirishga xizmat qilgan
		Xalqaro hamkorlik natijasida oʻquv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va taʼlim dasturlarining mazmuni takomillashtirilgan
		Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar natijalari boʻyicha tahlillar oʻtkazilib va tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan
		Tahlillar natijasida samaradorlik koʻrsatkichlari aniqlanib, xalqaro hamkorlik faoliyati qayta koʻrib chiqilgan va manfaatli yoʻnalishlarda rivojlantirilgan
2-bob. Taʼlim sifatini taʼminlash yoʻnalishi		

7	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani	Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilgan
		Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o'tkazilgan
		Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan
		Yig'ilgan ma'lumotlar, shu jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va ta'lim jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan hamda muntazam takomillashtirilgan
		Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi takomillashtirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilib borilgan
8	Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil	Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi (ichki ta'lim

	qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani	sifati nazorati bo'limi, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi) tashkil etilgan*
		Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan
		Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati muntazam ravishda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan hamda tahlillar asosida baholab borilgan
		Monitoring va tahlil natijalari OTT kengashining yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga yetkazilgan
		Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan
		Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etilgan
9	Talabalar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi	Talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) tasdiqlangan va ta'lim dasturlaridagi kutilgan o'quv natijalari hamda fanlarning (modullarning) maqsadlariga mosligi ta'minlangan
		Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin talabalar

		va professor-o'qituvchilarga ma'lum qilib borilgan
		Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qo'llanilgan hamda talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta'minlangan
		Baholash natijalari raqamli platformada, talabalarning amaliyot kundaligida hamda yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YDA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli aks ettirilgan, yuritilgan va saqlangan
		Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha talabalarning shikoyatlarini hal etish bo'yicha apellyatsiya va (yoki) qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud
		Baholash tizimining samaradorligi doimiy monitoring qilingan hamda monitoring natijalari asosida baholash tartibi takomillashtirib borilgan
10	Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalari belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi	Oliy ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnoma(lar) mavjud
		Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilingan
		Akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish

		bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilgan*
		Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralarini belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud
		Talabalar va professor-o'qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan
		Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan
		Talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilingan
		Akademik halollik tizimining samaradorligi doimiy tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan
11	Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari tahlil qilingani	Karyera markazi yoki bitiruvchilar bilan ishlash bo'limining faoliyati tashkil etilgan hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlangan
		Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

		Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy koʻnikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan fikr-mulohazalar olish tizimi yoʻlga qoʻyilgan*
		Bitiruvchilarning bandligi boʻyicha yagona maʼlumotlar bazasi mavjud hamda uning monitoringi muntazam yuritilgan
		Bitiruvchilarning bandligi monitoringi natijalari tahlil qilingan hamda Boshqaruv kengashi va OTT kengashining yigʻilishlarida muhokama qilingan va tegishli qarorlar qabul qilingan
		Bitiruvchilarning bandligi monitoring natijalari hamda ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida oʻquv jarayoni takomillashtirilgan, kadrlar tayyorlash siyosati va qabul parametrlari qayta koʻrib chiqilgan, shuningdek yangilangan maʼlumotlar jamoatchilikka ochiq tarzda eʼlon qilingan
3-bob. Talabalar faoliyati yoʻnalishi		
12	Qabul parametrlarining taʼlim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mosligi	Qabul parametrlari (talabalar soni, yoʻnalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) oliy taʼlim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi, shuningdek taʼlim dasturlarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatini hisobga olgan holda belgilangan*
		Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining

		(kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) imkoniyatlari (sig'imi) hisobga olingan
		Qabul parametrlari professor-o'qituvchilar soni, tarkibi va ularning o'quv (ish) yuklamasini tahlil qilish asosida belgilangan
		Moliyaviy imkoniyatlardan (budget, grantlar, kontrakt tushumlari yoki boshqalar) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan
		Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan
		Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor ta'lim yo'nalishlari va ilmiy salohiyat bilan uyg'un holda shakllantirilgan
		Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan
13	Talabalarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani	O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi belgilangan* O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga

		o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiqligi ta'minlangan
		Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan
		Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish va natijalarini e'lon qilish, tanlov asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar ro'yxatini e'lon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan
		Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan
		Qabul jarayoni doimiy ravishda ichki nazorat va tahlil qilingan hamda ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan
14	Talabalar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash (bundan buyon matnda talabalar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan	Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan*
		Talabalar harakati bo'yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari

	tartiblar asosida amalga oshirilgani	va boshqa hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda rasmiylashtirilgan, ular bo'yicha hisobdorlik ta'minlangan va muntazam monitoring yuritilgan
		Kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga o'tkazish yoki qoldirish bo'yicha qaror qabul qilishda akademik ko'rsatkichlar hisobga olingan
		Talabalar harakati bo'yicha talabalarning huquqlari ta'minlangan va jarayonlar haqida talabalar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek talabalar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (HEMIS, LMS) o'z vaqtida aks ettirilgan
		Talabalar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan
15	Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikning yo'lga qo'yilgani	Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar (shartnomalar, memorandumlar va hamkorlik bitimlari) tuzilgan
		Akademik mobillik jarayonlarini tashkil etish, tanlov o'tkazish va moliyalashtirish tartibi belgilangan
		Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma

		tashkil etilgan va (yoki) mas'ul ijrochi(lar) belgilangan Akademik mobillik jarayonlari milliy va xalqaro akademik mobillik talablari asosida amalga oshirilgan Professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan loyihalarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan Akademik mobillikda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar va talabalar ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini yaxshilashga qo'shayotgan hissasi tizimli tahlil qilingan
16	Ta'lim xizmatlari eksportining samarali yo'lga qo'yilgani	Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish tartibi bo'yicha ichki hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Xorijiy fuqarolarni jalb qilishga qaratilgan targ'ibot va xalqaro hamkorlik faoliyati muntazam yo'lga qo'yilgan Xorijiy talabalarga mo'ljallangan ta'lim dasturlari, til kurslari yoki maxsus modul va xizmatlar (viza rasmiylashtirish, viza muddatini uzaytirish, turgan joy bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va boshqalar) tashkil etilgan Xorijiy talabalarning yangi sharoitlarga (o'quv jarayoni, yashash, madaniyat va boshqalar) adaptatsiya bo'lishi bo'yicha ular tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar muntazam yig'ilgan, tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida

		o'quv jarayoni va ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish choralari ko'rilgan
		Xorijiy investitsiyalar hisobidan ta'lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma modernizatsiya qilingan
		Ta'lim xizmatlari eksporti ko'rsatkichlari, xorijiy talabalar oqimi, moliyaviy va akademik natijalar bo'yicha yillik tahlillar amalga oshirilgan va hisobotlar yuritilgan
4-bob. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi		
17	O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani	O'quv jarayoni jadvali (semestrlar davomiyligi, ta'til davrlari, oraliq va yakuniy nazoratlar muddatlari va boshqalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv yilining boshlanishidan oldin e'lon qilingan* O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (o'quv jarayoni jadvali, o'quv rejalar, o'quv dasturlar (sillabuslar), dars jadvallari va imtihonlar jadvallari) oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilgan holda tasdiqlangan Dars jadvallari o'quv rejadagi kreditlar (soatlar) hajmi, fanlar (modullar) ketma-ketligi, guruhlar sig'imi va professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamasiga muvofiq shakllantirilgan hamda auditoriya va vaqt bo'yicha to'qnashuvlarga yo'l qo'yilmagan Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bo'yicha

		haftalik va semestrlik yuklamalar taqsimoti hujjatlashtirilgan O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari, auditoriya, laboratoriya va maxsus xonalarning bandligi hamda guruhlar kesimidagi mashg'ulotlar axborot tizimida rejalashtirilgan va onlayn monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilgan O'quv reja va dars jadvallariga o'quv yili davomida kiritilgan o'zgartirishlar hujjatlashtirilgan hamda professor-o'qituvchilar va talabalarga o'z vaqtida yetkazilgan
18	Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi	O'quv dasturlarida (sillabuslarda) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalari, kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes), asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, baholash mezonlari va usullari, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari (o'quv dasturi (sillabus), o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilingan holda tasdiqlangan Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo'llanilishi

		doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan
		Monitoring va tahlil natijasida o'quv-me'yoriy hujjatlarni (o'quv dasturi (sillabus), o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) qo'llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o'quv-me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan
19	Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilganligi	Professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamalari xalqaro standartlar va (yoki) professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan O'quv (ish) yuklamalari professor-o'qituvchilar o'rtasida ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ilmiy unvonidan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan O'quv (ish) yuklamalarining taqsimoti barcha professor-o'qituvchilar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan O'quv (ish) yuklamalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv yili boshlanishidan avval professor-o'qituvchilarga yetkazilgan Shaxsiy yillik ish rejalarida ilmiy tadqiqot olib borish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun alohida band belgilangan

20	Ta'lim dasturlarining iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilanganligi	Ta'lim dasturlari bo'yicha muntazam monitoring va tahlil qilish mexanizmi yaratilgan hamda kutilgan o'quv natijalariga (learning outcomes) erishish darajasi doimiy baholangan
		Ta'lim dasturlari mehnat bozori, sanoat va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam qayta ko'rib chiqilgan
		Ta'lim dasturlari mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan
		Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o'rganilgan va inobatga olingan
		Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan
21	Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilinganligi	Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari oliy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan
		Rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilar tomonidan dars tahlillari reja-grafik asosida muntazam amalga oshirilgan
		Dars tahlillari natijalari oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilib borilgan

		Dars tahlillari davomida aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar tizimli ravishda ishlab chiqilgan Yosh pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida ular "ustoz-shogird" va mentorlik tizimlari asosida tajribali professor-o'qituvchilarga biriktirilgan
5-bob. Inson resurslari yo'nalishi		
22	Belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi	Professor-o'qituvchilarning soni talabalar kontingentiga nisbatan talabalar soni nisbati normativlari va professor-o'qituvchilarga qo'viladigan minimal talablar doirasida belgilangan (bunda, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni barcha professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)* Oliy ta'lim tashkiloti ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan (bunda, asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni barcha asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etadi)* Professor-o'qituvchilar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etgan hamda ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilingan Oliy ta'lim tashkilotini ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash uchun maqsadli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan

		Professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etilgan hamda ilmiy salohiyatga ega xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish tizimi mavjud
23	Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi	Professor-o'qituvchilar ular tomonidan o'qitiladigan (o'qitilayotgan) fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumot, mutaxassislik (ixtisoslik) va kasbiy tayyorgarlikka ega*
		Yangi yo'nalishlar yoki fanlararo (modullararo) kurslarni joriy etishda tegishli soha bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan
		Professor-o'qituvchilarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarida fan (modul) profiliga moslik asosiy mezon sifatida belgilangan
		O'quv (ish) yuklamasi professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi), ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va kasbiy kompetensiyasiga muvofiq ravishda adolatli va asosli taqsimlangan
		Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan
24	Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish	Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik va oliy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar

	bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani	(tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) mavjud*
		Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari hamda tanlov (imtihon, suhbat) asosida amalga oshirilgan
		Professor-o'qituvchilarning qo'nimsizligi va kadrlar siyosatining samaradorligi bo'yicha doimiy ravishda monitoring va tahlil olib borilgan, shu jumladan pedagog kadrlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari o'rganilgan
		Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda boshqaruv qarorlarida inobatga olingan, shuningdek chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlangan
		Yangi ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar uchun mentorlik va adaptatsiya dasturlari mavjud
25	Pedagog kadrlarning belgilangan talablarga muvofiq kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgani	Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarining kasbiy rivojlanishi, shu jumladan qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyalar va reja-jadvallar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
		Professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tarkibiy

		bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan
		Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan
		Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari professor-o'qituvchilar mutaxassisligi (ixtisosligi) va fan (modul) yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etilgan
		Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalari kadrlar siyosatida inobatga olingan
		Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning ulushi oxirgi uch yilda barqaror o'sish tendensiyasiga ega
26	Pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani	Mahalliy va xorijiy ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalar bilan malaka oshirish va (yoki) stajirovka bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga ega
		Stajirovka, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari uchun zarur moliyaviy resurslar ajratilgan va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan
		Stajirovka yo'nalishlari professor-o'qituvchilar mutaxassisligi (ixtisosligi) va fan (modul) yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etilgan*

		Stajirovka natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlangan hamda olingan bilim va ko'nikmalar o'quv jarayoniga joriy etilgan Stajirovka jarayonining samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud hamda stajirovka natijalari kadrlar siyosatida inobatga olingan Stajirovkada ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning ulushi oxirgi uch yilda barqaror o'sish tendensiyasiga ega
27	Rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani	Rahbar va professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) bo'yicha tartib ishlab chiqilgan va tasdiqlangan KPI tizimida o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyat yo'nalishlari qamrab olingan KPI ko'rsatkichlari va baholash mezonlari aniq belgilangan hamda baholash jarayonlari ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari asosida amalga oshirilgan KPI tizimining samaradorligi davriy ravishda tahlil qilingan hamda tahlil natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan KPI baholash natijalari bo'yicha rahbar va professor-o'qituvchilarni ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan
6-bob. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi		

28	Ta'lim tashkilotida professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari va xalqaro mobilligi uchun shart-sharoitlarning mavjudligi	Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun zarur laboratoriyalar va moddiy-texnik baza yaratilgan
		Ilmiy faoliyatni moliyalashtirish uchun mablag'lar (xalqaro va mahalliy grantlar, budget, donorlik yordamlari yoki boshqalar) jalb qilingan
		Professor-o'qituvchilar xalqaro ilmiy loyihalar va grantlarda ishtirok etgan
		Xalqaro mobillik dasturlari orqali xorijiy stajirovka imkoniyatlari yaratilgan
		Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha tartib va mexanizmlar mavjud
		Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha yillik hisobotlar tayyorlangan
		Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari tahlil qilingan hamda ilmiy faoliyatni rivojlantirish choralari belgilangan
		Talabalar va professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilingan
29	Ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi	Ilmiy-noshirlik faoliyatida antiplagiat tizimi joriy etilgan*
		Ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
		Barcha dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va tezislarni antiplagiat tizimi orqali tekshirish yo'lga qo'yilgan
		Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlar shakllantirilgan hamda ma'lumotlar bazasi

		yuritilgan
		Plagiat holatlarini tahlil qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi mavjud
		Ilmiy ishlarning o'rtacha o'xshashlik foizi va tendensiyalari bo'yicha yillik hisobotlari tayyorlangan
30	Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlarning (bundan buyon matnda amaliy anjuman deb yuritiladi) o'tkazilgani	Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan yillik reja asosida amaliy anjumanlar tashkil etilgan Amaliy anjumanlar oliy ta'lim tashkilotining ustuvor ilmiy-tadqiqot yo'nalishlariga mos ravishda o'tkazilgan Amaliy anjumanlarda talabalar, ilmiy izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar, xodimlar, hamkor mahalliy va xorijiy tashkilotlar ishtirok etgan Amaliy anjuman materiallari (tezislari, maqolalar to'plamlari yoki boshqalar) nashr etilgan Amaliy anjumanlar natijasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha kelishuvlar (memorandumlar, shartnomalar, qo'shma loyihalar yoki boshqalar) amalga oshirilgan Amaliy anjumanlar faoliyati oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilgan Oliy ta'lim tashkilotining faoliyati samaradorligiga amaliy anjumanlarning ta'siri tahlil qilingan va hisobot yuritilgan
31	Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxona va	Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda tashkilotlar, korxonalar va

	tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani	muassasalar bilan hamkorlik bo'yicha kelishuvlar (shartnomalar) imzolangan va ularning amal qilish muddatlari tasdiqlangan
		Hamkor tashkilotlar, korxonalar va muassasalar ishtirokida amalga oshirilgan (oshirilayotgan) ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar mavjud
		Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari asosida ilmiy yechimlar va texnologiyalar ishlab chiqarish va (yoki) o'quv jarayonlariga joriy etilgan
		Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini ishlab chiqarish va (yoki) o'quv jarayonlariga tatbiq etish bo'yicha dalolatnomalar, bayonnomalar yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar mavjud
		Ishlab chiqarish va (yoki) o'quv jarayonlariga tatbiq qilingan ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining iqtisodiy, texnologik yoki ijtimoiy samaradorligi bo'yicha tahlillar olib borilgan va hisobotlar yuritilgan
32	Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) (bundan buyon matnda indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari deb	Oliy ta'lim tashkilotida indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati mavjud*
		Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar (yo'riqnomalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv-seminarlar va treninglar o'tkazilgan

	yuritiladi) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati (IP manzil, login, korporativ akkaunt yoki boshqalar) yaratilgan Ilmiy maqolalar indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida chop etilgan hamda chop etilgan ilmiy maqolalar va ularga iqtiboslik ko'rsatkichlari bo'yicha talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar kesimida tahlillar yuritilgan Ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) besh va undan yuqori bo'lgan ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar bo'yicha tahlillar yuritilgan hamda ularni moddiy rag'batlantirib borish tizimi joriy etilgan Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha tahlil olib borilgan va hisobotlar yuritilgan
33	Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining muntazam monitoring qilib borilgani Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumiyashtirish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotida mas'ul tarkibiy bo'linma yoki ishchi guruhning faoliyati yo'lga qo'yilgan Ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilangan Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini raqamli tahlil qilish va monitoring qilish

		uchun maxsus axborot tizimlaridan foydalanilgan
		Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlar va statistik ma'lumotlar tayyorlab borilgan
		Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun patent, ijodiy (jumladan, san'at yo'nalishida) ishlarga olingan mualliflik guvohnomalari hamda elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar mavjud
		Ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijalari bo'yicha OTT kengashida muntazam muhokamalar o'tkazilgan
34	Talabalarning startap loyihalari va ratsionalizatorlik g'oyalari bilan respublika va xalqaro ilmiy dasturlarda ishtiroki hamda ularning natijadorligi	Talabalarning startap loyihalari va ratsionalizatorlik g'oyalari uchun tanlovlar, akseleratsiya dasturlari va inkubatsiya jarayonlari tashkil etilgan
		Talabalarning startaplari va ratsionalizatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi ichki mexanizmlar (grant, moddiy yordam, maslahatchilik, mentorlik yoki boshqalar) yo'lga qo'yilgan
		Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'quv-seminarlar, treninglar va master-klasslar o'tkazilgan
		Talabalar respublika va xalqaro ilmiy tanlov, grant yoki startap dasturlarida ishtirok etgan

		Talabalarning innovatsion g'oyalari va startap loyihalari oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida yoritilib borilgan Respublika va xalqaro ilmiy tanlov, grant yoki startap dasturlaridagi talabalar ishtirokining natijadorligi bo'yicha tahliliy hisobotlar va samaradorlik ko'rsatkichlari (yillar va ta'lim dasturlari kesimida loyihalar, ishtirokchilar va g'oliblar soni, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, joriy etilgan yechimlar va boshqalar) mavjud
35	Ta'lim tashkiloti talaba va professor-o'qituvchilarining ilmiy va ilmiy-texnik faoliyati natijalarining tijoratlashtirilgani	Ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha ichki tartib (reglament) mavjud Oliy ta'lim tashkilotida tijoratlashtirish bo'yicha tarkibiy bo'linma (texnologiya transferi markazi, innovatsiya bo'limi) tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha tuzilgan tijorat kelishuvlari (shartnomalari) mavjud Tijoratlashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar haqida hisobotlar yuritilgan Tijoratlashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ro'yxati va ularning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahlillar yuritilgan
7-bob. Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi		
36	Ta'lim xizmatlari yuzasidan talabalar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani	Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) hamda talabalarning ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlardan qoniqishi darajasini baholash bo'yicha so'rovnoma (anketa) shakli

		va metodologiyasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
		Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar (intervyular, muhokamalar va talabalar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) muntazam (kamida har semestrda bir marotaba) o'tkazilgan
		Talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish bo'yicha monitoring tizimi (onlayn anketa platformasi) mavjud
		Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan
		Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari o'quv jarayonini takomillashtirishda inobatga olingan hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlangan
		Talabalarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari oliy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ichki axborot tizimida e'lon qilingan
37	Talabalarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani	Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodimlar ajratilgan

		Karyera markazi (bitiruvchilar bilan ishlash bo'limi) faoliyati samarali tashkil etilgan hamda talabalar bandligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan
		Talabalarning bandligini ta'minlash maqsadida karyera yarmarkalari, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari muntazam o'tkazilgan
		Psixologik va karyera xizmatlari samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqilgan hamda amaliy choralar ko'rilgan
38	Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani	Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish) mexanizmlari ishlab chiqilgan
		Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarning ro'yxatlari shakllantirilgan hamda ular uchun individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan
		Talabani o'z iqtidorini ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar (stipendiyalar, grantlar, tanlovlar va boshqalar) yaratilgan hamda iqtidorli talabalarni saralash, qo'llab-quvvatlash va e'tirof etishda ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga amal qilingan
		Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi monitoring qilingan, shuningdek

		monitoring natijalari va talabalarning ehtiyojlari (takliflari) asosida ushbu mexanizmlar takomillashtirilgan
		Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalar oliy ta'lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)iga joylashtirilgan
		Talabalar turar joyida tarbiyaviy, madaniy va psixologik qo'llab-quvvatlash tadbirlari hamda talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan
39	Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani	Yoshlar siyosati va tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ichki tartib mavjud
		Yoshlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul xodimlar (kurator, tyutor, psixolog, huquqshunos yoki boshqalar) faoliyati yo'lga qo'yilgan
		Talabalar uchun huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilib borilgan
		Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport musobaqalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilgan
		Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birga talabalar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilgan
		Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan individual

		profilaktik ishlar olib borilgan hamda ularning natijadorligi tahlil qilingan va hisobotlar yuritilgan Yoshlar bilan ishlash, shu jumladan huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan ishlash samaradorligi bo'yicha natijalarga erishgan tyutorlar rag'batlantirib borilgan
40	Talabalar huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi	Talabalarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartib mavjud Ariza va shikoyatlar talabalar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali (qutilar, elektron vositalar, psixolog, mas'ul shaxs, ishonch telefoni yoki boshqalar) qabul qilib borilgan Ariza va shikoyatlar belgilangan muddatlar va tartibga qat'iy rioya qilgan holda ochiqlik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asosan ko'rib chiqilgan Ariza va shikoyatlar ro'yxati yuritilgan, ularni ko'rib chiqish muddatlari belgilangan hamda ko'rib chiqish jarayonlari hujjatlashtirilgan Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari tahlil qilingan hamda talabalarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilgan
8-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi		
41	Ta'lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkil qilish	Oliy ta'lim tashkilotining umumiy maydoni talabalarning kontingenti hisobga olingan holda bino va inshootlar,

	uchun talabalar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlanganligi	auditoriyalar, maxsus xonalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, amaliyot bazalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta'minlangan
		Oliy ta'lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi
		Ta'lim dasturidan kelib chiqqan holda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari talabalarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar, reagentlar, xomashyo materiallari yoki boshqa vositalar bilan ta'minlangan*
		Talabalar va professor-o'qituvchilarning elektron ta'lim platformalari (LMS, Zoom, Moodle, Google Classroom va boshqalar) hamda dasturiy ta'minotga kirish imkoniyati mavjud
		Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona moddiy-texnik baza, jihozlar va asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (yillik reja) ishlab chiqilgan va ijro etilgan
		Infratuzilma va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish

		bo'yicha moliyaviy hisobotlar mavjud
		Oliy ta'lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)i mavjud hamda uning faoliyati yo'lga qo'yilgan
42	Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani	Amaliyot o'tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma (laboratoriyalar, maxsus xonalar, amaliyot xonalari, amaliyot bazalari) mavjud va faoliyat ko'rsatadi Ta'lim dasturiga mos laboratoriya, maxsus xonalar, amaliyot xonalari va amaliyot bazalari tashkil etilgan hamda zarur jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlangan Laboratoriya, maxsus xonalar va amaliyot xonalaridagi jihozlar va asbob-uskunalar ishchi holatida hamda ularni yangilash va kalibrovka qilish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilgan Sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlarining bazalaridan foydalanish bo'yicha hamkorlik kelishuvlari mavjud hamda ushbu tashkilotlarda talabalar uchun mashg'ulotlar va amaliyotlar tashkil etilgan Amaliyot bazalaridan foydalanish tartibi va rejasi ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilishi doimiy monitoring qilib borilgan Talabalar uchun tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda amaliyotlar tashkil etilgan hamda ularda ishtirok etish natijalari bo'yicha hisobot yuritish tizimi yo'lga qo'yilgan

		Amaliyotlar natijalari tahlil qilingan, ular asosida o'quv jarayoni hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish choralari ko'rilgan
43	Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) talabalar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi	Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda fanlar (modullar) bo'yicha asosiy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlangan
		ARMning fondi tarkibi va undan foydalanish ko'rsatkichlari, shu jumladan kitoblar sonining (elektron manbalarning) talabalar soniga nisbati o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan minimal talablarga mos keladi*
		Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun elektron kutubxona va raqamli ta'lim resurslari, shu jumladan xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan
		ARM zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, internet, elektron katalog, elektron qurilmalar yoki boshqalar) bilan jihozlangan, internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan hamda ulardan foydalanish bo'yicha talabalarga tushuntirishlar berilgan
		Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan

		ARM sohaviy ilmiy nashrlar va jurnallar bilan ta'minlangan hamda elektron katalog va onlayn foydalanish tizimi yaratilgan va muntazam yangilangan
		ARM xizmatlari va elektron resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha monitoring va foydalanuvchilar statistikasi yuritilgan va tahlil qilib borilgan
44	Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani	Oliy ta'lim tashkilotining binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo'lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan
		Ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), ergonomik o'rindiqlar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud
		Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitrlar, ekran o'quvchi tizimlar yoki boshqalar) yaratilgan
		Inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha tayyorlangan va zarur ko'nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud hamda individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan
		Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi va samaradorligi bo'yicha monitoring yuritilgan

45	O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani	O'quv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarining joylashuvi o'quv mashg'ulotlarining mazmuni, amaliyot jarayonlari va ergonomika me'yorlariga mos
		O'quv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida jihozlar va asbob-uskunalar, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga mos ravishda joylashtirilgan
		O'quv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalar shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq isitish, shamollatish, konditsiyalashtirish va yoritish tizimlari bilan ta'minlangan
		O'quv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida erkin harakatlanish ta'minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yo'llari belgilangan
		Xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi bo'yicha muntazam tekshiruvlar va profilaktika tadbirlari o'tkazilgan
46	O'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani	O'quv xonalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan Raqamli ta'lim muhiti (LMS, sun'iy intellekt, VR tizimlari, elektron jurnal, elektron kutubxona, raqamli o'quv resurslari yoki boshqalar) joriy etilgan va o'quv jarayonida faol qo'llanilgan

		Professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonida raqamli ta'lim muhitidan, shu jumladan elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va interaktiv uskunalardan samarali foydalanilgan
		Onlayn darslar va videokonferensiyalar uchun texnik sharoitlar yaratilgan
		Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish talablari ta'minlangan
		O'quv binolari va talabalar turar joylarida barqaror va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i ta'minlangan hamda Wi-Fi zonalari tashkil etilgan
47	Ta'lim tashkilotida talabalar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi	Oliy ta'lim tashkilotida, shu jumladan talabalar turar joy(lar)ida talabalar kontingentiga mos ravishda bufet (oshxona) mavjud hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq yuritilgan, shuningdek bufetda (oshxonada) sog'lom ovqatlanishga oid tavsiyalar va ratsional menyu yo'lga qo'yilgan
		Oliy ta'lim tashkilotida, shu jumladan talabalar turar joyi(lar)ida talabalar kontingentidan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari mavjud
		Sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari doimiy faoliyat ko'rsatadi, ularning jihozlari texnik jihatdan soz holda saqlangan va yangilab borilgan

		Dam olish va suhbatlashish uchun qulay joylar (yoritilgan ochiq maydonlar, ayvonlar, o‘rindiqlar, yopiq xonalar) tashkil etilgan
		Talabalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha fikr-mulohazalar tizimi yo‘lga qo‘yilgan

Izoh:

1) mezonlarni majburiy va umumiy turlarga ajratish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

2) majburiy va umumiy indikatorlar “muvofiq” yoki “muvofiq emas” tarzida baholanadi;

3) majburiy va umumiy indikatorlar bo‘yicha mezonni baholash mazkur izohning 4-kichik bandining talablarini hisobga olgan holda quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “muvofiq”;

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “qisman muvofiq”;

50 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

4) mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat’i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

5) indikatorlarda nazarda tutilgan oliy ta’lim tashkilotining ichki hujjatlarini (tartib, nizom, qoidalar, yo‘riqnoma, chora-tadbirlar, monitoring va tahlil natijalari) birlashtirish (unifikatsiya qilish) mumkin;

6) *majburiy indikatorlar.